

**NOAN'ANAVIY DARS USULLARINI O'QITISH JARAYONIDA MUSIQA  
O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

*Asomova Dilnoza Fazliddinovna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Musiqa ta'lifi fakulteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Interfaol ta'lim uslublarni o'qitish jarayonida musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, umumta'lim maktablarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlari, musiqa ta'limida dars samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari, interfaol metodlar turlari va maktab o'quvchilarini ham ijroviy, ham ijodiy barkamollikka erishishlari uchun usul va texnologiyalar foydalanish yo'llari o'rinn egallagan.

**Kalit so'zlar:** noa'nanaviy dars , musiqa o'qituvchisi, interfaol, texnologiya, klaster, metod, kuy, ohang.ilm-fan, texnika,

O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarni qo'llanishi, ta'lim taraqqiyotning ilm-fan, texnika, ishlab chiqariah va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollarini oshib berdi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda interfaol uslublar va pedagogic texnologiyalardan samarali foydalanish yaxshi natija bermoqda. Shu bois ham ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagog kadrlar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan dars mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashni bilishlari zarur. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda kuproq natijaga ega bo'lish uchun o'tmish allomalarimizning go'ya va qarashlaridan foydalangan holda innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llash zarur. Ushbu zamonaviy metodlar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qobiliyatlarni rivojlantirishga hamda yetuk mutaxasis bo'lishlariga yordam beradi. Dars jarayonida interaktiv metodlar va yangi pedagogic texnologiyalarni qo'llash o'qituvchidan mahorat talab etadi. Hozirgi kunda interfaol uslublarning soni juda hilma-hil bo'lib ta'lim-tarbiya jarayonida keng q'ollanib kelinmoqda. Interfaol ta'lim usullaridan dars jarayonida foydalanib, ijobiy natijaga ega bo'lish eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamenti hosil qilish, ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxasisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to'laqonli oshib berilgandir.

Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko`p jihatdan o`qituvchiga, uning dunyoqarashiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o`qitish va tarbiyalash ishiga bo`lgan munosabatiga bog`liq. Bo`lajak musiqa o`qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlarni o`qitish va pedagogik mahoratni egallah, nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llashga o`rgatish bugungi kun talabidir. O`qituvchilik kasbi sharafli, lekin juda murakkab va mashaqqatli kasbdir. O`qituvchi musiqiy bilimlarni egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni o`tagan bo`lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o`qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bo`lajak musiqa o`qituvchisi nutq madaniyatiga ega bo`lishi kerak. U o`qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko`rishi hamda ularni barkamol inson sifatida kamol topishiga ko`maklashishi, har bir darsni o`quvchilarni hayot tajriba bog`lagan holda olib borishi, turli musiqa o`qitish metod, innovatsion texnologiyalar, ko`rgazmali qurollar, kompyuter slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak. O`z kasbiy mutaxassisligini puxta egallagan bo`lishi, bolalar ovoziga o`zining ovozini moslab kuylay olishi, ijrochilik mahoratiga ega bo`lishi, sinfdan tashqari to`garaklarga o`quvchilarni jalb etish bilan turli tanlovlardan, tadbirlarda o`quvchilar bilan faol ishtirok etishi lozim. O`qituvchi har bir darsini ssenariy muallifi, ijrochisi, rejissori bo`lish bilan birga zamon bilan hamnafas qadam tashlashi kerak. O`qituvchilik kasbini egallash uchun albatta kasbiy qobiliyatlar bilan birga jismoniy va ruhiy sog'lom bo`lishi darkor. Sog`lom kishi deganda faqat jismoniy sog`lomlikni emas, balki sog`lom ruhiy xislatlarni, sharqona axloq-odob va umumg`oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. Hozirgi davrda musiqa o`qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha yondashuv, uning metodologiyasini chuqur o`rganish talab etiladi. Umumta'lim maktablarida esa musiqa madaniyati darslarining asosiy maqsadi, o`quvchilarda musiqaga qiziqish uyg`otish orqali musiqiy madaniyatni tarkib toptirish. Zero, kuy va ohang tasirida inson ezgulikka intilish, go`zallikni asrash, ona tabiatga, Vatanga muhabbat his tuyg'ularini shakllantirib, m'anaviy dunyosini boyitadi. Maktabda musiqa darslarini o`qitishning asosiy vazifalari o`quvchilarni musiqa san'atiga bo`lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish, musiqiy faoliyatlar jarayonida o`quvchilarni musiqiy qobiliyati, musiqiy uquvi, ovozi, diqqat-etibori va ijodkorlik hisularini o`stirish, musiqiy asarlarni badiiy-g`oyaviy mazmuni vositasida axloqiy ruhda tarbiyalash, musiqa darslarida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish, mehnatga, tabiatga muhabbat, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat tuyg`ularini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o`qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratiga bog`liq. Har qanday san'atkori ham

maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o`qituvchisi bolalarni sevadigan, pedagogika, psixologiya, informatika, bolalar fiziologiyasi, musiqa o`qitish metodini hamda o`z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o`zlashtirgan inson bo`lishi kerak. Musiqa o`qituvchisi o`z kasbiga va bolalarga mehr qo`yan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo`lgan shaxs bo`lishi lozim. Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo`sinqi bola qalbiga tez yo`l topa olishi, uning ruhiyatiga ijobiy tasir ko`rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr-oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini anglab yetgan. “Musiqa madaniyati” darslarida Interfaol ta’lim uslublarni hamda zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo’llash, ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollikni oshiradi. O’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtiradi, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Interaktiv” (interfaol)-inglizcha so’z bo’lib, “interact”- “inter”-bu o’zaro, “act”-bu “harakat qilmoq” ma’nosini anglatadi. Umumlashtirganda esa “Interaktiv” (interfaol) –“o’zaro harakat qilmoq” ma’nosini anglatadi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: mavzuga doir bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va ifodalash, oz kuch sarflab ko’proq natijaga erishish, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratish, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va pedagogik maqsadlarning sistemalashtirish nazariyasi yaratgan. U Blum nazariyasi deb nomланади. Unga ko’ra tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo’llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo’ladi.

An’anaviy hamda Interfaol dars orasidagi farqlar:

1. O’quv rejadagi fanlarni o’qitishda qaysi mavzular bo’yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda bir mavzu bo’yicha mashg’ulotning maqsadiga to’liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg’ulot turlaridan foydalanish ko’zda tutiladi.
2. Interfaol mashg’ulotning samarali bo’lishi uchun o’quvchilar yangi mashg’ulotdan oldin uning mavzusi bo’yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur.
3. Interfaol mashg’ulotda o’quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg’ulotga nisbatan ko’p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o’qituvchi tomonidan mayjud vositalar va o’z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Interfaol mashg’ulotlarni amalda qo’llash bo'yicha ayrim tajribalarnio’rganish asosida bu mashg’ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni ko’rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o’qituvchiga, o’quvchilarga, ta’lim vositalariga bog’liq omillar deb atash mumkin.Ular o’z mohiyatiga ko’ra ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o’quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqlar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar- tinglash, kuylash, musiqani idrok etish qobiliyatları orqali zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etishning o'ziga xos jihatlari bilib anglab boradilar Ular umumiy o'rtta ta’lim maktabni tamomlab, musiqa fanidan o'zlari egallagan ko'nikmadan amaliy ravishda mustaqil foydalanadilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.Sharipova “Musiqa o’qitish metodikasi” T.,2020 y
2. Azizzadjayeva N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogic maxorat”(o’quv qo’llanma) T. 2006.
3. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari).Mualliflar guruhi./T.:OO\_MQHTRM, 320-bet;
4. Fayziyev O. «O’quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakillantirishyo’llari»T 1992.
5. Ishmuhamedov R va boshqalar Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi – o’qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) – T.: “Istedod”, 2010.